

THEORETICAL POETICS THROUGH THE PRISM OF IDENTIFICATION AND TRANSFORMATION OF THE CONCEPTUAL-TERMINOLOGICAL APPARATUS

Dilfuza Abduvakhabovna KHATAMOVA

Associate professor, doktor of Philology

The name of the National University of Uzbekistan is Mirzo Ulugbeka

Tashkent, Uzbekistan

NAZARIY POETIKA ASOSLARI TERMINLAR IDENTIFIKATSIYASI VA TRANSFORMATSIYASI PRIZMASIDA

Dilfuza Abduvaxabovna XATAMOVA

Dotsent, filologiya fanlari doktori

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ ПОЭТИКА СКВОЗЬ ПРИЗМУ ИДЕНТИФИКАЦИИ И ТРАНСФОРМАЦИИ ПОНЯТИЙНО -ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКОГО АППАРАТА

Дилфуза Абдувахабовна ХАТАМОВА

Доцент, доктор филологических наук

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Ташкент, Узбекистан xatamovadilfuza73@g.com

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Xatamova D.A. Nazariy poetika asoslari terminlar identifikatsiyasi va transformatsiyasi prizmasida.// O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2025. — 11-jild, № 5. — B.294-308.

<https://doi.org/10.36078/1762756945>

Received: August 29, 2025

Accepted: October 17, 2025

Published: October 20, 2025

Copyright © 2025 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Abstract. The study addresses a range of theoretical and methodological issues related to the precise interpretation of the fundamental categories that shaped the early system of concepts in theoretical poetics and laid the scientific foundations for literary studies as an independent discipline. The genesis and historical evolution of the category *poetics*, as well as related concepts such as *truth*, *falsehood*, and *verisimilitude*, are examined. These notions emerged within philosophical and aesthetic doctrines and determined the methodological directions for the analysis of a literary work. It is emphasized that the development of this terminology contributed to the establishment of the first coherent conceptual system and the theoretical framework of literary scholarship, within which *poetics* initially referred to the science of literature as a whole. As the object and subject matter of literary studies expanded and its theoretical foundations evolved, *poetics* came to be regarded as a fundamental category of literary theory. Tracing the historical evolution of the concept of *poetics* makes it possible to follow the formation of literary studies as a scientific discipline. The article,

therefore, seeks to identify the theoretical underpinnings of literary scholarship through the analysis of the processes of identification, reinterpretation, and transformation of its conceptual and terminological apparatus. This, in turn, ensures the accurate use and interpretation of key terms and contributes to improving the quality of literary text analysis.

Keywords: term; terminological system; literary terminology; poetics; theoretical poetics.

Annotatsiya. Maqolada adabiyotshunoslikning mustaqil ilmiy fan sifatida shakllanishiga asos bo'lgan dastlabki nazariy poetika kategoriyalarini to'g'ri va ilmiy talqin qilishga oid murakkab metodologik masalalar atroflicha tadqiq etiladi. "Poetika" tushunchasining genezisi, tarixiy rivojlanish bosqichlari va mazkur kategoriya bilan bevosita bog'liq bo'lgan "haqiqat", "yolg'on", "haqiqatga yaqinlik", "mantiqiylik" kabi falsafiy-estetik konseptlarning shakllanish jarayoni ilmiy tahlil markaziga olinadi. Falsafiy-estetik qarashlar doirasida vujudga kelgan ushbu terminlar keyinchalik badiiy matnning mazmun-mohiyatini tadqiq etishning metodik yo'nalishlarini belgilab, adabiyotshunoslikda birlamchi terminologik tizimning shakllanishiga zamin yaratgani alohida ta'kidlanadi. Ushbu jarayon poetikaning dastlab adabiyot haqidagi umumiy fan sifatidagi talqinini, hamda fan obyekti va predmetining kengayishi jarayonida poetikaning adabiyotshunoslikning markaziy va strukturaviy kategoriyasiga aylanishini ko'rsatib beradi. Poetika tushunchasining tarixiy shakllanishini o'rganish adabiyotshunoslik fanining bosqichma-bosqich rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi. Maqolada terminologik apparatni identifikatsiya qilish, ilmiy qayta talqin etish va transformatsiya jarayonlarini tahlil qilish orqali adabiyotshunoslikning metodologik asoslarini aniqlashga urinish amalga oshiriladi. Bu yondashuv terminlardan to'g'ri foydalanish imkonini kengaytirib, badiiy matnni ilmiy asosda talqin qilish sifatini oshiradi.

Калит сўзлар: термин; терминологический тизим; adabiyotshunoslik terminologiyasi; poetika; nazariy poetika.

Аннотация. В статье рассматривается комплекс теоретико-методологических проблем, связанных с корректным истолкованием базовых категорий, на основе которых была сформирована первоначальная система понятий теоретической

поэтики, заложившая научные предпосылки становления литературоведения как самостоятельной дисциплины. Анализируется генезис и историческая эволюция категории «поэтика», а также сопряжённых с ней понятий, таких как истина, ложь, правдоподобие и другие концепты, возникшие в рамках философско-эстетических учений и определившие направления дальнейшего теоретического анализа художественного текста. Подчёркивается, что формирование данной терминологии способствовало созданию первой целостной терминосистемы и теоретического фундамента литературоведения, в рамках которой поэтика первоначально обозначала науку о литературе в целом. Последующее расширение объекта и предмета литературоведческого исследования, а также углубление научно-теоретической рефлексии привели к восприятию поэтики как ключевой структурообразующей категории дисциплины. Изучение исторического развития этой категории позволяет реконструировать этапы формирования литературоведения как науки. В статье предпринимается попытка выявить методологические основания дисциплины через анализ процессов идентификации, переосмысления и трансформации понятийно-терминологического аппарата, что обеспечивает более точное использование терминов и способствует повышению качества интерпретации художественного текста.

Ключевые слова: термин; терминологическая система; литературоведческая терминология; поэтика; теоретическая поэтика.

Kirish

Adabiyotshunoslikda identifikatsiya va transformatsiya masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tadqiqqa tortilar ekan, avvalo, ularning fundamental tushunchalari borasida fikr yuritib, poetika terminining ma'no qamrovi chegaralari ta'limotlar ichra kengayishi va o'zgarishiga to'xtalmoq va ushbu omil orqali nazariy poetikani genezisini va qonuniyatlarini aniqlash lozim. Nazariy poetika, jumladan, adabiyot nazariyasining ilm sifatida shakllanishi aynan terminologiya rivoj bosqichlarini aniqlash orqali to'liq anglanadi. Adabiyot nazariyasi va uning ilmiy asosi bo'lgan nazariy poetika eng avallo falsafaga oid ta'limotlarda, keyinchalik ritorika va estetika

nazariylarida o'z qoida, qonunlarini izchil ravishda ishlab chiqdi. Ushbu maqola aynan shu bosqichlarni o'rganishga qaratilgan.

Asosiy qism

Poetika adabiyotshunoslik termini sifatida ilk bor antik davrning yetuk faylasuflari Aflotun va Arastu ta'limotida, keyinroq rimlik olim Goratsiy ishlarida uchraydi. Arastu *poetikani* "badiiy adabiyot haqidagi ta'limot" [Aristotel 2010: 13], deya e'tirof etgani ma'lum, shuning uchun ham kitobiga ikkinchi nom sifatida "She'riy san'at" terminini qavs ichida keltiradi. *Poetika* tushunchasi ilmiy manbalarda adabiyot haqidagi ilm deb tushuntirilgan. Adabiyotshunoslik ta'limot sifatida qabul qilinar ekan, badiiy adabiyot uning obyekti deb tushunilgan. Antik davrda yaratilgan *poetikaga* doir qarashlar tahlilga tortilar ekan, badiiy adabiyot (poeziya. — X.D.)ning asosiy funksiyasi estetik xususiyat kasb etgani tufayli u o'z o'rnida adabiyotshunoslik predmeti deb belgilangan. Termin identifikatsiyasi bilan bog'liq muammolar keng ko'lamda Arastuning "Poetika" va Goratsiyning "Pizonlarga maktub" asarlarida yoritilgan. Aytish joizki, *poetikaning* vazifalarini belgilashda, ikki olim qarashlarida tafovut mavjud. Arastu adabiyotni san'at turlariga qo'shib, uning asosiy vazifasini estetik zavqlantirish deb belgilaydi va bu hodisa atrofga, borliqqa taqlid orqali amalga oshirishini ko'rsatadi. Borliq va tabiatga taqlid qilish — adabiyot inson qalbini poklashi (katarsis) orqali uning tafakkurini kengaytirishi va yuksaltirishi deb tushuntiriladi. Shu ma'noda, aynan Arastu adabiyotning estetik mohiyatini ilk bor izohlaydi. U "Poetika" asarida tarixchilar va shoirlar faoliyatini qiyoslab, e'tiborni ijodkorlarga qaratadi. Mutaftakkirning fikriga ko'ra, aynan shoirlar kelajakni ko'ra oladigan va unga poydevor qo'yadigan insonlardir. Shoirlarning olam manzarasini anglashdagi o'zgacha tafakkuri va nuqtayi nazar yuqorida ko'rsatilgan omilni amalga oshirishga xizmat qiladi. Tarixchilar uchun "o'tmish" muhim bo'lib, obyekt sifatida xizmat qilsa, yozuvchilar o'sha o'tmishni kelajak bilan bog'lab, ma'lum ma'noda zamonlararo ko'priq qurishga qodir. Shunday qilib, Arastu tarix va adabiyotni ajratib beradi va *poeziyaning* asosiy xususiyati uning *taqlidiy tabiatida* deb belgilaydi. *Taqlid poeziyaning* asosiy xususiyati ekan, uning ma'no qamrovi diqqat-e'tiborimizda bo'lmog'i lozim. Arastu *taqlid* tushunchasining ma'no qamrovi tarkibiga poeziyaning olti turini kiritadi: *epos, fojia, komediya, difiramb, avletika, kifaristika* va uning ichida uch komponentni ajratib ko'rsatadi:

1. Taqlid obyekti.
2. Taqlid usullari.
3. Taqlid vositalari.

O'z navbatida, obyekt o'z ichiga xarakter, his-tuyg'u, ishtirok etuvchi shaxslarni olsa, taqlid usullari taqlid kim orqali va qay tarzda berilishini, taqlid vositalari esa ritm, garmoniya va so'z orqali ifodalanishini ko'rsatadi [Aristotel 2010:35]. Aflotun poetik ijodni intuitsiya bilan bog'laydi va uning manbasi ritm va ohangni tug'ma

anglashda deb tushuntiradi. Olimning shogirdi Arastu taqlid manbasi sifatida insonning hayot davomida olgan tajribalarini ko'rsatadi, buyuk mutafakkir uchun bilim olish jarayonining o'zi muhim omil bo'lib, poklanish bosqichining umumlashma vositasidir. Bu o'rinda ayonlashadiki, Arastu *taqlid* tushunchasining ma'no qamrovi chegaralarini kengroq oladi. *Taqlid* tushunchasining aynan mana shu ma'no doirasi keyinchalik Arastu tarafidan ishlab chiqilgan etika tasnifiga asos bo'ldi deyish mumkin. Kelajakda ushbu tasnif klassitsizm davri qonuniyatlariga asos bo'lib, bu davrda shoirlarni ikki toifaga ajratish urf bo'ldi: "yuksak" (высокий) va "quyi" (низкий) [Meletinskiy 2000:116]. Arastu ta'limotida adabiyotda ikkisi ham muhimligi ta'kidlanib, ular poeziyaning turlarga bo'linishi uchun asos bo'lib xizmat qilishi ta'kidlangan. Ularni ajratish jarayonida eposni tragediya, yambik poeziyani komediya bilan bog'laydi, buning natijasida adabiyotning uch asosiy turi tragediya, komediya va epos hamda ularning janrlari olimlar diqqat markazida bo'ladi. Aynan shu tarzda tadrijiy ketma-ketlikda hozirgi adabiyotshunoslikning asosiy tushunchalari shakllana boshlaydi.

Poetika borasida Goratsiy qarashlarida Arastu ta'limotiga tayanish bilan birga amaliy tavsiyalar ham mavjud. Goratsiy "Pizonlarga maktub" asarida poetik asarning maqsadi — zavqlantirish, ta'sir ko'rsatish va o'rgatish deb belgilaydi. Arastu adabiyotda belgilagan estetik mohiyatga Goratsiy adabiyotning didaktik jihatini ham qo'shadi va asarida poetik san'atning qat'iy qoidalarini ishlab chiqib, ularga rioya qilish bu kabi ijodda asosiy shart ekanligini ta'kidlaydi: "Poeziya — borliqqa taqlid. Asardagi xarakterlarni yozuvchi borliqqa taqlid qilish orqali gavdalandiradi, lekin poetik asarda nafaqat borliq, balki to'qima ham borki, shoir haqqoniylik chegarasini nazarda tutmog'i lozim: uning tasavvuridagilar haqiqatga yaqin bo'lsin" [Svetkov 1886:444]. Ta'kidlash joizki, *haqqoniylik* va *to'qima* tushunchalari haqida Arastuning "Poetika"sida ham so'z yuritilgan edi: "Poeziya tarix emas, unda to'qima bo'lishi darkor... to'qima mifning bir bo'lagidir. Vaholanki, mif birlamchi, u yolg'on va shu bilan birga haqiqatdir" [Aristotel 2010: 13]. *Mif* deganda Arastu va Aflotun *syujet*ga asos bo'lgan voqeani tushunadi. Bu o'rinda terminologiya masalasiga aniqlik kiritish lozim. Arastu terminologiyasida "syujet" termini uchramaydi, bu lotincha so'z XVII asrdan boshlab faol qo'llanila boshlangan. Arastu asarida esa uning o'rniga *fabula* istifoda etilgan. Demak, antik davrning eng buyuk allomalari *syujet to'qima* va *haqiqat*ga asoslanganini ta'kidlaydi. Yuqoridagi nazariy mulohazalarga tayanib, aytish joizki, adabiyotshunoslik terminologiyasi antik davrning eng ko'zga ko'ringan namoyandalari ilmiy qarashlarida shakllana boshlagan va buyuk mutafakkirlar tomonidan berilgan izohlar bugungi kun adabiyot ilmida ham tayanch tushunchalar sifatida xizmat qiladi, keltirilgan iqtibos va izohlarning dolzarbligi shubhasizdir. Ilmiy manbalar tahlili natijasida *poetika*, *poeziya*, *haqiqat* va *to'qima* kabi terminlarning qay tarzda vujudga kelganiga aniqlik kiritildi. Goratsiy poeziyaning

maqsadidan kelib chiqib, uning ikki funksiyasini belgilaydi: o'rgatuvchi va ko'ngilochar. Goratsiy o'z asarida "kitobxonga foydali zaruriyatni go'zal shakl orqali ifodalay olgangina olqishga sazovor" [Svetkov 1886: 446], deb ta'kidlaydi. Rimning buyuk mutafakkiri Sitseron poeziyaning oddiy ko'ngilochar hodisa emasligi, balki qalbni nafosatga oshno qilish, ya'ni poklash xususiyatiga ham e'tibor qaratadi: "Poeziya tomonidan beriladigan zavq qalbni poklash va yuksaltirish bilan bog'liq. Poeziya inson ruhini shakllantirib, uni yovvoyilik bosqichidan ziyo sari yetaklaydi va aynan shuning uchun poeziyaga oid asarlar qadimdan qadrlanadi va shoirning nomi ilohiylashtiriladi" [Svetkov 1886: 447], deb yuqoridagi fikrni dalillaydi. Uzoq vaqt davomida bu maktub yosh shoirlarga uslubiy ko'rsatma sifatida xizmat qildi: "Shoir ijodi nafaqat foydali, balki muhim bo'lib, u o'spirinning nutqini nafis ifodalar bilan to'ldirib, uning qulog'ini qo'pol so'zlardan saqlab, qalbini nafrat, johillik, g'azabdan qutqarib, nafis tuyg'ular bilan oziqlantiradi" [Svetkov 1886: 470]. Olim muallifning o'rni va rolini tahlil qilib, uning inson ma'naviy dunyosi shakllanishidagi ahamiyatini ko'rsatadi, adabiyotning asosiy funksiyalari, insoniyat sivilizatsiyasida badiiy asar va muallifning o'rni hamda ahamiyatini belgilaydi. Bu ikki ta'limot misolida *poetika* (adabiyot nazariyasi) termini o'z ma'no qamrovi doirasini o'sha *zamon* va *makon* ichra belgilab bordi.

Rus olimi Y. Borev poetikaga ta'rif berar ekan, bugungi kun adabiyotshunoslik tadqiqotlarida, hatto fundamental ishlarda ham *nazariy poetika* terminiga izoh berilmaganiga e'tibor qaratadi va muammoning ritorika bilan bog'liq tomonlarini ko'rsatib, poetika va ritorika munosabatlari hanuzgacha mavhumligi va bu borada alohida izlanish yo'qligiga e'tibor qaratadi. Olimning fikri bizni ko'proq e'tiborni shu omilga qaratishga da'vat qildi. Binobarin Y. Borev [Borev 2003: 313] ta'kidlaganidek, bugungi kunda poetikaning nazariy tomonini o'rganadigan tadqiqotlar kam.

Poetika (adabiyot nazariyasi) *ritorika* ilmi bilan teng rivojlandi. Biri — taqlid san'ati deb nomlansa, ikkinchisi — ishontirish san'ati deb ta'kidlandi. Bu, o'z navbatida, nimaga va qay tariqa taqlid qilish, mazmun va shaklga doir muammolarni yuzaga keltiradi. Goratsiy mazmunni "haqqoniy va to'qima voqelikka taqlid" [Svetkov 1886: 468], degan izohi mavjud bo'lib, taqlid insonning qiziqishlari bilan uzviylashib, oxir-oqibat yangi narsalar va hodisalarni idrok qilishga da'vat qiluvchi tuyg'u sifatida ko'rsatiladi. Arastu "Poetika"sida taqlidning uch turi ajratilib ko'rsatiladi: obyektiv hikoya — epos, shaxs hissiyoti — lirika, ishtirokchi shaxslarning harakatda namoyon bo'lishi — drama. Badiiy nutq ritorikaga qarashli bo'lishiga qaramay, ko'chim, badiiy san'at va vazn haqida so'z yuritilishi bilan badiiy shakl poetika tarkibida o'rganildi. Antik mutafakkirlar ta'limotlari zahirida adabiyot nazariyasi asosi shakllandi va zamonaviy adabiyotshunoslikning ilmiy-nazariy poydevori yaratildi. Shu asnda, adabiyot ilmining *poetika*, *taqlid*, *poeziya*, *haqqoniylik*, *to'qima*, *mif* kabi ilk adabiyotshunoslik terminlari tizimi shakllana

boshladi. Ushbu terminlar ma'no qamrovlarini chegaralashda, antik va o'rta asr ilmiy-nazariy ta'limotlariga murojaat qilib, ularning talqini va tahlilini ko'proq Arastu, Aflotun, Goratsiy, Skaliger, Vandomskiy asarlarida uchratdik. Albatta, bir maqola doirasida bu kabi muammolarni ko'rib chiqish mushkul. Aytish mumkinki, terminlar tizimiga kirgan yuqorida ko'rsatilgan tushunchalarning ilk nomlanish va talqinlari antik va qadimgi Sharq ta'limoti zahirida mavjudga kelib, asrlar osha ular o'z ma'no qamrovlari chegaralarini o'zgartirib, kengaytirib va aniqlashtirib keldi. Ushbu holat adabiyot nazariyasining ilm sifatida shakllanib, o'z tayanch tushunchalarni ishlab chiqish, zamon va makon osha talimotlar ichra ma'no qamrovlarini kengaytirib, transformatsiya holatiga uchraydi.

Bugungi kun adabiyotshunoslaridan Y. Surganova va A. Maxovning "Yevropa poetikasi. Antik davrdan Ma'rifatchilik davrigacha" ensiklopedik yo'riqnomasida I. Ilin *poetika* va uning ma'no qamrovi haqida fikr yuritarkan, zamonaviy adabiyotshunoslik poetikaning birgina o'rganilgan qismidan foydalanadi. Vaholanki, tadqiq qilinmagan qismi ushbu tushunchaning termin sifatida ma'no qamrovi chegaralarini belgilashda muhimligini ta'kidlab, "poetika – alohida qobiliyatga ega insonning yaratgan "ohangi" bo'lib, u odamlar shuuriga ta'sir ko'rsatadi va ularning dunyosida yoki o'zga ilmlar, san'atlar va boshqalar orasida o'z joyiga ega bo'lgan "shoirilar haqidagi ertakning" keng qamrovli talqini" [Surganova & Makhov 2010: 12], deb izohlaydi. Demak, zamonaviy adabiyotshunoslikda poetika adabiyotning biror-bir aspekti yoki ijodiy jihatiga emas, balki u voqelik (bir nechta voqelik), ya'ni fabula, fabula bo'lganda ham, uning tom ma'nosida (rivoyat, ertak, mif) yaratilgan badiiy hodisaga yo'naltiriladi.

Terminlardagi transformatsiya hodisasi nafaqat G'arb, balki Sharq adabiy-estetik ta'limotida ham uchraydi, ushbu terminlarning izohlarini aniqlashtirish uchun ularning genezisi, evolyutsiyasini aynan qadimgi ilmiy-nazariy manbalarni o'rganish orqali to'g'ri belgilash lozim. Adabiyotshunoslik o'z obyektining keng qamrovliligi bilan ajralib tursa, uning tayanch tushunchalari estetik birlik sifatida anglanishi bilan o'ziga xos murakkablikni hosil qiladi.

O'rta asr poetikasi antik davr mutafakkirlarining ilmiy risolalarini o'rganishga, tahlil qilib, she'riy asarlar yaratishning talablarini ishlab chiqishga harakat qildi. Ushbu davrning yorqin namoyandalaridan biri shoir Matvey Vandomskiy va filolog Iogann Garlandskiy bo'lib, poetika haqidagi bilimlarni tizimlashtirdi va she'riyatga taalluqli yagona qoidalarni ishlab chiqdi. Jumladan, Vandomskiyning "Noma" asarida nazariy ko'rsatmalar, ko'chim va figuralar tahlili, obrazlar, *zamon* va *makon* haqida fikrlar, Iogann Garlandskiyning "Parij poetikasi" [Surganova & Makhov 2010: 12] ("Parisiana poetria", 1218–1249) darsligida ritmik va metrik she'rlar haqida nazariy qarashlar jamlangan. Vizantiya olimi Georgiy Xirovoskning "Obrazlar haqida" asarida allegoriya, metafora, perifraz, pleonazm, giperbola, ironiya, sarkazm kabi ritorik figuralar haqida

soʻz yuritilgan. Olimning “Obrazlar haqida” asari poetikaning tarkibiy qismlariga bagʻishlangan boʻlib, u ilmiy-nazariy jihatdan hanuzgacha oʻz dolzarbligini yoʻqotmagan. Asar qiymati aynan terminshunoslar uchun alohida qadrli, chunki u *poetika* borasidagi terminologiyaning izohini beruvchi eng qadimgi adabiyot nazariyasi boʻyicha darslik sifatida tan olingan: “Obrazlar haqida” asari turli ritorik figuralarning roʻyxati va terminologiyasi jihatidan ahamiyatli: “majoz” (allegoriya), “koʻchirish” (metafora), “tasviriy ifoda” (perifraziya), “ortiqchalik” (pleonazm), “mubolagʻa” (giperbola), “kinoya” (ironiya), “oʻtkir istehzo” (sarkazm) va hokazo” [Grinser 2013:114]. Demak, bugungi kun adabiyotshunosligida faol ishlatilayotgan terminlar badiiy nutqqa oid boʻlib, yuqorida qayd qilingan tushunchalar ularning ilk nomlanishi hisoblanadi, oʻrta asrdan Renessans davriga qadar “*poeziya* — nutqning oʻziga xos koʻrinishi” [Shestakov 1981: 26], kabi shior ostida rivojlangan.

Poetika haqida antik davr taʼlimotlari taʼsir kuchini Italiya, Fransiya shoirlari ijodida ham koʻrishimiz mumkin. Masalan, XVI asrda ijod qilgan Trissin, Tasso yoki Y.S. Skaligerlarni olish mumkin. Skaliger poeziya maqsadini didaktik va estetik jihatlarida deb biladi va bu qarash negizida Arastu va Goratsiyning bu boradagi fikrlarini birlashtiradi. U oʻz “Poetika”sida *zamon* va *makon* birligi, asarning kompozitsion jihatlarini koʻrib chiqadi va Arastuning taqlid nazariyasini qoʻllab-quvvatlaydi. Uning uchun poeziya zavq beruvchi ilmdir, bu qarashi bilan Goratsiyning “poeziya — zavqlantirish orqali oʻrgatish” degan mulohazasini teranlashtiradi. Shu bilan birgalikda Skaligerning poetika haqidagi taʼlimotida qisman bir-biriga qarama-qarshi boʻlgan uch prinsipni ajratish mumkin:

- 1) Gumanistik prinsip;
- 2) “Ikkilamchi badiiy olam” yaratuvchi ijodkorning neoplatonizm prinsipi;
- 3) Arastuning tabiatga taqlid prinsipi (janrlar tarixi va nazariyasi, taqlid maqsadlari).

Ushbu “Poetika” yetti boʻlimdan iborat:

- 1) *historicus* (janrlar tarixi va nazariyasi, taqlid maqsadlari);
- 2) *hyle* (taqlid usullari: sheʼr shakllari, leksika va h.);
- 3) *idea* (*personajlar*);
- 4) *parasceve* (uslub va poetik figuralar);
- 5) *criticus* (Gomer va Vergiliy misolida yunon hamda lotin mualliflari uslubini qiyoslash);
- 6) *hypercriticus* (lotin poeziyasi tarixi haqida ocherk);
- 7) *epinomis* (ilova).

Skaliger soʻz sanʼatini uch kategoriyaga ajratadi:

- 1) falsafa (tarkibiy);
- 2) ritorika (kerakli);
- 3) poeziya (tafakkurga undovchi).

Shu asnda poeziya (poetika)ning ikki funksiyasiga uchinchisini, yaʼni borliqni tafakkuridan oʻtkazib, keng qamrovda tahlil qilishga undovchi xususiyatini belgilab beradi. Demak, antik davr nazariy

konsepsiyalarining rivoji adabiyot, ya'ni poeziya terminining ma'no qamrovi ichiga tafakkur orqali o'zligini, o'z "men"ini olam manzarasi chegaralarini kengaytirish orqali anglashni va bu holat ma'naviy poklanishga olib kelish hodisasini yuzaga keltiradi.

Yuqorida qayd qilinganidek, poetika XVII asrga qadar ritorikaning bir qismi bo'lib keldi. *Poetika* termin sifatida evolyutsiya bosqichlaridan o'tar ekan, o'z ma'no qamrovi chegaralarini kengaytirib, astalik bilan adabiyotshunoslikka oid terminlar tizimini ishlab chiquvchi, adabiyot ilmini "tushuntirish" markaziy kategoriyasiga aylandi. Aynan shu asnoda nazariy poetikani imiy-nazariy poydevori yaratadi.

Antik davrdan boshlab XVII asrga qadar G'arb ta'limotlarida *poetika* terminining genezis va evolyutsiyasini diaxron va sinxron kesishmada o'rganish, ushbu termin mohiyatini Sharq ilmiy-nazariy konsepsiyalarining tahlilisiz anglab bo'lmaydi. *Poetika* kategoriyasining termin sifatida ma'no qamrovi chegaralarini qat'iy belgilashda, Sharq allomalari tomonidan berilgan talqin juda muhim ahamiyatga ega.

Sharq adabiy-estetik ta'limotiga murojaat qilinar ekan, ilk bor VII asrda Bhamaxinning "Kavyalankara" asarida "poetika (poeziya) — so'zdagi ma'no va shaklning birikuvi" [Kristeller 1981: 210] kabi izohini uchratamiz. Terminolog sifatida bu izohdagi "*shakl*", "*ma'no*" va "*birikish*" kabi tushunchalarni ajratdik, chunonchi, ushbu tushunchalar badiiy asarga tegishli bosh kategoriyalarni, mazmun va shaklning dialektik birligi formulasini anglatadi. Shuni ta'kidlash joizki, G'arb kabi Sharqda ham poeziya (poetika) lingvistikaga og'ishlar ichra o'rganilgan, lekin Bhamaxining izohi shunisi bilan ahamiyatliki, badiiy asarda mazmun va shakl mavjudligi va ularning uzviy bog'liqligini aniq ko'rsatadi. Bhamaxi izohida poetik tilning asosiy xususiyatini uning jozibasida (alamkara) deb biladi va "Poetik san'atlar" asarida ularning tasnifi borasida batafsil to'xtaydi. Ayni shu jihat qadimgi hind poetikasining o'ziga xos xususiyati bo'lib, "badiiyat jozibasi haqida ilm" bosh yo'nalishga aylanadi. Hatto IX–X asrlarda Alankariklar maktabi faoliyat ko'rsatib, keyinchalik dxavani va rasi maktablariga asos soladi. *Dxavani so'zning yashirin* ma'nosi bo'lsa, *rasa* — so'zning estetik emotivligi, *saxitya poeziya (saxitya-vidya, saxitya-shastra – "poeziya haqidagi ilm")* [Grinser 2013: 39] terminining sinonimi sifatida ishlatilgan. Keyinchalik *dxavani* va *rasa* tushunchalari birlashtirilib, bir tushuncha *vakronti* termini bilan ifodalangan. Ushbu tushunchaning tarjimai "egiluvchan nutq" ma'nosini anglatadi va Hind poetikasida *ritorika* tushunchasini anglatuvchi termin bo'lmagani uchun rus olimi Grinser *vakronti* [Grinser 2013: 32] termini aynan ritorikani bildirgan deb ta'kidlaydi. *Poeziya* tushunchasining sinonimi borasidagi yuqoridagi fikrlarni XIV asrda faoliyat ko'rsatgan Vishvanatxaning "Saxitya-darpana" ("Poeziya san'atining ko'zgusi") nomli asari ham dalilaydi. Shuni aytish joizki, hind mumtoz poetikasi lingvistikaga ma'lum ma'noda qaram edi, chunki yuqorida ko'rsatilgan barcha poetik kategoriyalar

grammatika bilan bevosita bog'liqlikda o'rganilib, muallif, avvalo, grammatik qoidalarni bilib, ularga tayanib, ish ko'rish lozim edi. Masalan, XII asrda faoliyat ko'rsatgan Xemachandra poetikaga oid mashhur "Kavyanshusana" asarini "Shabdano'shasana" grammatik ta'limotining davomi deb biladi. Aytish joizki, *muallif* antik va o'rta asr davrlarida (*literator, literator, literatus*) [Grinser 2013: 27] nafaqat yozuvchi, balki birinchi navbatda, grammatika, keyin esa adabiyot bilimdoni sifatida qabul qilinardi.

So'zga e'tibor nafaqat hind mumtoz poetikasi doirasida, balki butun dunyo miqyosida bo'lgan qadimgi va o'rta asr adabiyotiga tegishli bo'lib, albatta, nazariy qarashlarda lingvistik og'ishlarga sabab bo'ldi, ya'ni har bir tadqiqot obyekti, avvalo, ritorika qoidalariga bog'lanib bordi.

Sharq olimlarining mumtoz adabiyotga bag'ishlangan nazariy ishlarida shaklga e'tibor ko'proq bo'lib, sharqshunos olim M. Vinternis shunday izohlaydi: "Sanskrit poeziyasining asosiy jihati uning shaklga e'tiboridir" [Grinser 2013: 38]. Hind adabiyotshunosi S. K. De sanskrit poeziyasining bir tomonlama ekanini ta'kidlab, aynan shu omil uni estetika darajasiga chiqishga monelik qilishini ta'kidlaydi. Agar G'arb falsafasida poeziyaning (poetika) estetik kategoriyasi birlamchi qo'yilsa, Sharqda shakl ustunligi bunga yo'l qo'ymaydi.

Arab poetikasida adabiyotning mohiyati ifodada emas, balki Aflotunning poeziya haqqoniy yoki yolg'onligi haqidagi diadasi: "poeziya mantiqiy san'atlarning oxirgi turi (apodeytika, dialektika, ritorika, sofistika va poeziya)" [Grinser 2013: 24] shiori ostida o'tadi". Ushbu holat Xitoy poetikasiga ham taalluqli bo'lib, muallifning o'rni va ahamiyati inobatga olinmas edi. O'rta asr yapon adabiyotida ham shakl ustunligi yaqqol ko'zga tashlanib, keyinchalik u "shakl estetikasi" konsepsiyasiga aylanadi. Bu formalizmni G'arb adabiyotida ham ko'rish mumkin. Jumladan, fransuz va island skaldlar poeziyasida M. Steblin-Kamenskiy xulosalariga ko'ra, ushbu poeziyada "poetik shaklning gipertrofiyasi" [Meletinskiy 2000: 116] ro'y beradi, ayni hodisa antik adabiyotga ham taalluqli. Kursiusga ko'ra, yunonlarga "ijodiy tasavvur kabi tushuncha notanish bo'lgan. Ularda hatto uni ifodalash uchun termin ham bo'lmagan" [Surganova & Makhov 2010:132]. Ushbu mavzuda rus olimi A. Losev ham fikr yuritib, antik davrdagi ta'limotlarni formalistik g'oyalar bilan to'lib-toshganini ta'kidlaydi. Bu o'rinda Arastuning *poetika* haqidagi fikrlarida taqlidning o'ziga xos xususiyati uning katarsisga olib keluvchi holati, ya'ni qalb poklanishi asarning mohiyati, estetik tomoni bilan bog'liqligini ko'rsatganini unutmazlik lozim.

Poeziya, ya'ni adabiyotning ilohiyligi haqidagi qarashlar shaklni mazmundan ustun qo'yishga olib kelmasligi haqida P. A. Grinser fikr bildiradi: "san'atning formalistik nazariyasi va sho'rning Olloh tomonidan beriladigan ilhom in'omi orasidagi ziddiyat sun'iydir" [Grinser 2013:25]. Demak, Hindistonda adabiyot manbasi Yaratgan, ilhom, koinot go'zalligi va ilohiy *Sarasvati*, Xitoyda esa koinot *ven*"

[Grinser 2013:25], bo'lgan. Yuqorida ko'rib chiqqan sharqona ta'limotlarda poeziya ilohiy qudratga ega bo'lib, mazmuni Yaratgan tomonidan insonga uni kerakli shaklga solish uchun beriladi.

Antik davrdan XVII asrning oxirigacha G'arbda ham, Sharqda ham adabiyotning ilohiy xususiyati ta'kidlanib, muallifga ikkalamchi maqom beriladi. Muallif faqat texnik amalni bajaruvchi deyilishi yana bir qator terminlarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi, ya'ni poeziya haqidagi izohlarda “yaratish”, “qurish” yoki “ulash” kabi tushunchalar poetik so'zning yaratilishi bilan bog'lanib, qadimgi hind vacas taksh va avesto manbalarida *vacas-tašti* – “so'zlarni tizimlashtirish” [Kristeller 1981:12), qadimgi yunonchada *ep'eôn t'ektones* – “so'zlarni yaratuvchilar” kabi terminlar bilan berilishi ahamiyatlidir. Binobarin, bundan “po'iesis” va “poiētēs” (poeziya va shoir) terminlarining vujudga kelishiga zamin yaratib, “poiēō” tushunchasi “ishlov beryapman” ma'nosini anglatib, qadim hind poetikasida u “*kriyā-kalpa*” – bilim, mahorat, san'atkorlik [poeziya] termini bilan ifodalangan” [Svetkov 1886: 289].

Antik va o'rta asr allomalari adabiyotning asosini mifda deya talqin qilishadi, bu borada mifologiyada so'zning ilohiyligi ushbu qarashlarning rivojini muayyan ma'noda belgilab beradi. Binobarin, so'zni adabiyotning asosiy kategoriyasi sifatida ko'rsatilishi ham tabiiydir. Masalan, qadimgi Hindistonda so'z Braxman bilan tenglashtirilgan, antik va o'rta asrlarda Yunonistonda ham so'z ilohiylashtirilgan. Aynan shu jihat ilmiy qarashlarning nazariy rivojiga ancha vaqtgacha yo'l qo'ymadi.

Poetika haqida so'z yuritilar ekan, shuni alohida ta'kidlash lozimki, antik davr va o'rta asr allomalaridan farqli o'laroq, Sharq olimlari so'zning ilmiy-nazariy tadqiqini miloddan avval I asrda sanskrit asotirlarini sheva tillariga tarjima qilish jarayonida boshlab yuborishgan. Ellinizm davri adabiyoti muallifga so'z ustida ishlash talabini qo'yadi. Bu holat dunyo adabiyotshunosligida Renessans davrigacha davom etdi. Bunga dalil sifatida aytish joizki, ritorika bo'yicha ko'plab ilmiy manbalar yaratildi. O'z navbatida, ritorika birlamchi bo'lib, poetika uning tarkibidagi bo'lim sifatida qaraldi.

XVII asr klassitsizm adabiy yo'nalishi vujudga kelishi bilan belgilanib, unga ko'ra ratsionalistik qoidalar sahnaga chiqadi. Bu borada N. Bualoning “Poetik mahorat” asari ahamiyatlidir. Goratsiy g'oyalariga amal qilib: “Учите мудрости и стихе живом и внятном, / Умея сочетать полезное с приятным” [Bualo 1957: 8], deb ta'kidlaydi. Faylasuf she'riy satrlarda lozim va zarif fikrlar orqali donolikka o'rgatishni da'vat etadi. Klassitsizmning asosiy qoidasi aqlga quloq tutish: “...Обдумать надо мысль и лишь потом писать. / Пока не ясно вам, что вы сказать хотите, / Простых и точных слов напрасно не ищите...” [Bualo 1957: 8]. N. Bualo o'sha davrdayoq poetikaning asosi bo'lgan kategoriyalarini, ya'ni mazmunning shakl bilan, uning kompozitsiyasi, asar qismlarining o'zaro dialektik bog'liqligini ta'kidlagan: “Поэт обдуманно все должен разместить, / Начало и конец в поток единый слит...”

[Bualo 1957: 9]. “Poetik mahorat” asarida o’sha vaqtda ma’lum bo’lgan uch janr haqida so’z boradi, ya’ni *fojia, epopeya va komediya*. Olim lirik janrlarni ikkinchi darajali deb hisoblaydi. N. Bualo poetik qarashlarining tarafdorlari I. I. Gotshed, V. Trediakovskiy bo’lib, jumladan, I. Gotshedning “Olmonlar uchun tanqidiy poetika tajribasidan” (“Опыт критической поэтики для немцев”) olmon shoirlari uchun amaliy ko’rsatmalarni ishlab chiqishga harakat qilishi bilan ahamiyatlidir. V. Trediakovskiyning “Rus she’riyati yaratilishining yangi va qisqa usuli” (“Новый и краткий способ к сложению российских стихов с определениями до сего надлежащих знаний”) nomli asarida rus she’riyatining o’ziga xos jihatlarini ko’rib chiqdi. M. Lomonosov ijodiy izlanishlari klassitsizmning ratsionalistik ruhiyatiga mos kelmagan, A. Sumarokov, N. Bualoning poetikasi ta’sirida shoirlarni asar mazmunini ifoda qilishda soddalik va aniqlikka chorlaydi. U o’zining “G’ayritabiiylik haqida” (“О неестественности”) nomli tadqiqotida shoirlarni balandparvoz, jimjimador so’zlarni ishlatganlikda ayblaydi.

XVIII asr poetikasi tarkibida she’riy asarlar qatorida nasriy asarlar ham tahlilga tortila boshlandi. Bunda olmon mumtoz adabiyoti vakillari G. Lessing va Gegelning xizmatlari beqiyos. G. Lessing Arastu “Poetika”siga murojaat qilib, adabiyotning taqlid san’ati sifatida qabul qilinishi haqidagi g’oyasini qo’llab-quvvatladi. Jumladan, “Laokoon yoki tasviriy san’at va poeziya chegaralari haqida” (“О границах живописи и поэзии”) asarida u adabiyotni haykaltaroshlik va rassomchilik bilan qiyoslab, bular ichida aynan poeziyaning hayot bilan bog’liqligini ta’kidlaydi, uning inson taqdirini o’sha zamon va makonning o’ziga xos jihatlariga bog’liqligini ko’rsatib o’tadi. Gegel “Estetikadan ma’ruzalar”ida “ichki tasavvur, tafakkur va tuyg’u sohasida she’riyatning o’zi haykaltaroshlik va rasmga xos bo’lgan ishonchni yo’qotmaydigan va boshqa har qanday san’atga qaraganda, ancha to’liqroq taqdim eta oladigan keng obyektiv dunyoni yaratib, hodisaning yaxlitligi, ketma-ketligi, aqliy o’zgarishi kayfiyat, ehtirosalar, g’oyalar va har qanday harakatlarning tugallanganligini anglatadi” [Nikolaev 1988: 68], deb adabiyotning o’rnini belgilab beradi va “She’riyat bir vaqtning o’zida parchalana boshlangan va falsafiy bilimlar uchun diniy g’oyalarga, shuningdek, ilmiy tafakkur nasriga o’tish nuqtasini topadigan maxsus san’at bo’lib chiqadi” [Nikolaev 1988: 68], deb adabiyotni inson sivilizatsiyasida muhim o’rin tutgan din, e’tiqod va an’analar bilan bog’liqligini ta’kidlaydi.

Arastuning izidan XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida olmon estet olimlari poetika va tarixning vazifalarini ajratib beradi. Jumladan, V. Shlegel, I. Gerder poetik adabiy turlar haqida nazariy fikrlar bildirishgan, ular har bir tur haqida alohida izlanishlar olib borib, janrlar taraqqiyoti borasida qiyosiy-tarixiy tavsiflar berishgan. G. Gegel dramaning tahlilini amalga oshirib, janriy, kompozitsion va badiiy vositalarini ko’rib chiqadi. Aynan shu davrda adabiyotdan badiiy adabiyotni ajratish bo’yicha jiddiy ishlar qilinadi. Bunga

go'zallik kategoriyasining tadqiqi turtki bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi, keng ma'noda poeziya nomli alohida predmet belgilanib, u haqidagi ilm adabiyotshunoslik deb ajratiladi. Demak, ungacha poetika haqidagi fikrlar ko'rsatmalar tarzida ritorika ilmi tarkibida bo'lsa, endilikda badiiy adabiyot haqidagi ilm, ya'ni adabiyotshunoslik mustaqil maqomni egallagan fan tarmog'iga aylandi. Adabiyotshunoslikning alohida fan sifatida ajralish hodisasi, badiiy asarlar tahlili tanqidchilar tomonidan ilmiy izohlanib, asosiy diqqat-e'tibor uning estetik jihatiga qaratildi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, mumtoz idealizm davri olmon olimlari tomonidan ishlab chiqilgan estetika kelajakda adabiyot nazariyasining rivojiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatdi, Baumgartenning "Estetika", "Poeziya haqida falsafiy mulohazalar" asarlari, Gegelning "Estetika"si shular jumlasidandir. Shubhasiz, qayd qilingan asarlar "adabiyot nazariyasi [Nikolaev 1988: 68]dan darsliklar bo'lib, ular adabiyot tarixi bilan ham bog'liq edi. Estetik qamrovning kengligi va ularning shu jihatdan baholanishi nihoyatda torligi sabab adabiyot tarixining vazifalarini aniqlashtirishga imkon bermas edi. XIX asrning 40-yillarida vujudga kelgan tarixiy yo'nalish estetik mezonni inkor qilib, adabiyotni faqat umumtarixiy metod nuqtayi nazaridan o'rgandi. Ya'ni badiiy ijod adabiyotning tarixiy bo'limini o'rganish predmetiga aylanishi lozim edi. Bu an'ana keyinchalik madaniy-tarixiy maktab tarafdorlari tomonidan qo'llanildi. Bu maktab tarafdorlari adabiy jarayonlarning qonuniyatlarini o'rganib, ularni badiiy asar mazmuni, tarixiy voqelik va jamiyatdagi qadriyatlar bilan bog'liqligini ta'kidladi. Biografik metod tarafdorlari ushbu yondashuvda falsafiy-estetik tanqidchilar qarashlariga tayanib, E. Kant fikrlari negizida diqqat-e'tiborini muallif shaxsiga qaratdi va asarning o'ziga xos tomonlarini aynan shu omil bilan bog'ladi. Bundan ko'rinib turibdiki, adabiyotshunoslikda poetik jihatdan XIX asrning eng yirik ikki maktabi ikki xil pozitsiyani egalladi.

Xulosa

Xulosa sifatida aytish joizki, G'arb va Sharqda muallif hamda poeziyaning o'rnini haqida bahslar olib borilgan, yuqorida ko'rsatib o'tgan texnik jihat birlamchi bo'lib, antik dunyo tadqiqotchilari tomonidan ham muammoga aniqlik kiritilgan. Demak, nazariy jihatdan G'arb va Sharq olimlarining fikrlari alohida bo'lsa-da, bir-biriga mushtarak holda rivojlangan. Poetikani ko'proq lingvistikaga bog'lab o'rganish, ritorikaning o'rnini va ahamiyati, muallif maqomi kabi muammolar dunyo allomalari tomonidan bir-biriga yaqin qo'yilgan. Poetika terminining ma'no qamroviga ahamiyat berilar ekan, uning bosh kategoriyasi sifatida, umuman, adabiyot haqidagi ilm sifatida rivojlanish tarixini diaxron, sinxron va tipologik kesishmada o'rganish qadimgi G'arb va Sharqda ilmiy-nazariy qarashlar, falsafa ta'limotlari ichra adabiyotshunoslik ilmining ildizlari, tayanch terminlarining vujudga kelishi, shu konsepsiyalar rivoji bilan bog'liq holda *poetika* terminining transformatsiyaga uchrashi haqida gapirishga imkon

beradi. Garchi Sharq va G'arb allomalari terminlarni turlicha nomlasada, zamirida adabiyotga tegishli bir adabiy-estetik hodisa haqida fikr yuritilishini dalillaydi. Bugungi kunda milliy adabiyotshunosligimizda terminlar ma'no qamrovini bilmaslik ularni noto'g'ri qo'llash, binobarin, ma'no mohiyatni buzilishiga olib kelmoqda. Termin va tushunchalar adabiyotshunoslik ilmini mohiyatini ochishga xizmat qilar ekan, badiiy asar kabi noyob hodisani nazariy qoidalarga tayangan holda tug'ri tahlil qilish terminlar ma'no qamrovi chegaralari bilan bevosita bog'liqligini unutmaslik lozim. Ushbu holat nazariy poetikada shakllanpan va shakllaniyotgan qonun-qoidalarni bilmaslikka va asarni notug'ri talqin qilishga olib keladi. Adabiyotshunoslik ilm ekan barchamizdan asar tahlilida aniq qidalarga tayanishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Аристотель. Поэтика. Риторика. — Санкт-Петербург: Азбука-классика, 2010. — 347 с.
- Борев Ю. Б. Эстетика. Теория литературы. Энциклопедический словарь терминов. — Москва: Издательство Астрель, 2003. — 574 с.
- Буало Н. Поэтическое искусство. — М.: ГИХЛ, 1957. — 232 с.
- Введение в литературоведение: Хрестоматия: Учеб. пособие для филол. спец. вузов / Сост.: П. А. Николаев и др.; Под ред. П. А. Николаева. — 2-е изд., испр. и доп. — М.: Высш. шк., 1988. — 480 с.
- Гринцер П. А. Сравнительное литературоведение и санскритская поэтика. Т. 2. — Москва, 2013. — 670 с.
- Европейская поэтика. От Античности до эпохи Просвещения / Под ред. Ю. А. Сургановой, А. Е. Махова. — Москва: Интрада, 2010. — 508 с.
- Kristeller, P. O. Studien zur Geschichte der Rhetorik und zum Begriff des Menschen in der Renaissance. — Göttingen, 1981. — 189 s.
- Мелетинский Е. М. От мифа к литературе. — Москва, 2000. — 168 с.
- Raghavan, V. Studies on some concepts of the alamkāra. — Madras, 1973. — 210 p.
- Светков П. И. Мысли Горация о поэзии и условиях совершенства поэтических произведений в «Послании к Пизонам» // Прибавления к Творениям св. Отцов, 1886. — Ч. 37, Кн. 1. — С. 443—473.
- Эстетика Ренессанса / Сост. В. П. Шестаков. Т. II. — Москва: Искусство, 1981. — 639 с.

References

- Aristotel. (2010). *Poetika. Ritorika* (Poetics. Rhetoric). Saint-Peterburg: Azbuka-klassika. (In Rus.)
- Borev, Yu. B. (2003). *Estetika. Teoriya literatury. Entsiklopedicheskiy slovar terminov* (Aesthetics. Theory of Literature. Encyclopedic Dictionary of Terms). Moscow: izdatel'stvo Astrel. (In Rus.)
- Bualo N. *Poeticheskoe iskusstvo* (Art of Poetry). (1957). Moscow: Gosudarstvennoe izdatel'stvo khudozhestvennoi literatury (In Rus.)

- Grinser, P. A. (2013). *Sravnitel'noye literaturovedeniye i sanskritskaya poetika* (Comparative Literary Studies and Sanskrit Poetics) (vol. 2). Moscow.
- Surganova, Yu. A., & Makhov, A. Ye. (Eds.). (2010). *Yevropeyskaya poetika. Ot Antichnosti do epoxi Prosvesheniya* (European Poetics. From Antiquity to the Enlightenment). Moscow: Intrada. (In Rus.)
- Kristeller, P. O. (1981). *Studien zur Geschichte der Rhetorik und zum Begriff des Menschen in der Renaissance* (Studies on the History of Rhetoric and the Concept of Man in the Renaissance). Göttingen. (In Germ.)
- Meletinskiy, Ye. M. (2000). *Ot mifa k literature* (From Myth to Literature). Moscow. (In Rus.)
- Nikolaev, P. A. (ed.) (1988). *Vvedenie v literaturovedenie: Khrestomatiya*. Moscow: Vysshaya shkola. (In Rus.)
- Svetkov, P. I. (1886). *Mysli Goratsiya o poezii i usloviyax sovershenstva poeticheskix proizvedeniy v "Poslanii k Pizonam"* (Horace's Thoughts on Poetry and the Conditions for the Perfection of Poetic Works in "Epistle to the Pisos"). *Pribavleniya k Tvoreniyam sv. Otsov*, 37(1), 443–473. (In Rus.)
- Shestakov, V. P. (Ed.). (1981). *Estetika Renessansa* (Aesthetics of the Renaissance) (T. II). Moscow: Iskusstvo. (In Rus.)